

RESTORATION AND ANALYSIS OF ENGLISH TRANSLATIONS OF LEXEMAS OF MEASUREMENT OF TIME UNITS IN "BOBURNOMA"

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11530250>

Sayyora Shodmonova

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

PHD dotsent. Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institute

E-mail:sayshodmonova71@gmail.com

Tel:(95) 322 00 04

ORCID ID 0009-0005-2564-9003

Abstract

The purpose of this article is to discuss the pragmatic features of units of measurement. However, the word pragmatics is defined in detail. In many areas of our lives, we need measurements. In the past, it was known that measurements were needed in every field. In addition, the objects and measurement systems to be measured are becoming increasingly complex, making them difficult to model and manage. In today's rapidly changing world, a number of questions arise related to the basics of measurement science and technology.

Key words: measurement, pragmatics, field, technology, definition, semantics, symbols, syntax, sign

РЕСТАВРАЦИЯ И АНАЛИЗ АНГЛИЙСКИХ ПЕРЕВОДОВ ЛЕКСЕМ ИЗМЕРЕНИЯ ВРЕМЕННЫХ ЕДИНИЦ В "БОБУРНОМЕ"

Аннотация

Цель этой статьи является обсуждение прагматических особенностей единиц измерения. Однако слово прагматика определяется подробно. Во многих областях нашей жизни нам нужны измерения. В прошлом было известно, что измерения необходимы в каждой области. Кроме того, объекты и измерительные системы должны быть избавлены все более сложными, что затрудняет их модели и управлять. В сегодняшнем быстро меняющемся мире появляются ряд вопросов, связанных с основными науками и технологиями.

Ключевые слова: измерение, прагматика, область, технология, определение, семантика, символы, синтаксис, знак.

“BOBURNOMA” MATNIDAGI VAQT O’LCHOV BIRLIKLARI LEKSEMALARINING INGILIZCHA TARJIMALARIDA QAYTA TIKLANISHI VA TAHLILI.

Annotatsiya

Ushbu maqola “Boburnoma” matnidagi vaqt o’lchov birliklarining lingvokulturologik xususiyatlariga bag’ishlanadi. O’lchov birliklarining tarjimasini transliteratsiya usulida berilishi hamda tarjimalarning lingvokulturologik va pragmatik xususiyatlariga alohida e’tibor berilgan. “Boburnoma” matnidagi vaqt o’lchov birliklarining tarjimalarda aks etishdagi muammolar va ularning tarjimalarida lingvokulturologik xususiyatlarini qayta tiklanish masalalari tahlil qilingan.

Kalit so’zlar: o’lchov birliklari, vaqt o’lchovlari, misqol, lingvokulturologik xususiyatlar, asliyat, matematik raqamlar.

Bizga ma’lumi, tilni madaniyat fenomeni sifatida o’rganuvchi fan lingvokulturologiyadir, til va madaniyat o’zaro aloqadorlikda bo’lgan predmetni tashkil etadi. “Lingvo-kulturologiya insoniy, aniqrog’i, shaxs va madaniy omilni uzviylikda tadqiq etuvchi fandır” . V.N.Teliyaning ta’kidiga ko’ra, bu omillar bir-biri bilan uzviy bog’liklikda ushbu fanning vujudga kelishiga va bu boradagi tadqiqotlarning amalga oshishida muhim ahamiyat kasb etadi. G.G.Slishkin “Lingvokulturologiya inson omiliga, aniqrog’i, insondagi madaniyat omiliga yo’naltirilgan. Lingvokulturologiyaning markazi madaniyat fenomenidan iborat bo’lishi inson haqidagi fanning antropologik paradigmaga tegishli hodisa ekanligidan dalolat beradi” , deb ta’kidlaydi. Har ikki olimning lingvokulturologiya haqidagi fikrlari bir-birini to’ldiradi. Bu esa ularning o’rtasida uzviy tarzda bog’liqlik bor ekanligini shak-shubhasiz qabul qilish mumkinligidan darak beradi.

Hozirgi vaqtda lingvokulturologiya jahon, xususan, rus tilshunosligida eng rivojlangan yo’nalishlardan biri bo’lib, bu borada yaratilgan o’quv qo’llanmalar ichida V.A.Maslova tomonidan yaratilgani eng mashhurlaridan biri hisoblanadi. Ushbu o’quv qo’llanmada lingvokulturologiya sohasining metodlari, obyekt va predmeti, yo’nalishlari yoritib berilgan, muayyan til birligini lingvokulturologik tahlil qilish namunalari ko’rsatilgan .

Lingvokulturologiya - bu til va madaniyat o’rtasidagi o’zaro bog’liqlik bo’lib, leksik til birligi orqali ifoda etilayotgan leksik birliklarni ko’rsatib berish bilan bog’liq holda amalga oshiriladi. Matnda keltirilgan madaniyatning leksik birlik

orqali tasvirlanishi, uni o'quvchiga tushunarli tarzda yetkazib berishdir. Bularni tarjimalarda aks ettirishda esa shu millat madaniyati va urf-odatlarini yaxshi o'zlashtirgan bo'lish taqozo etiladi.

Milliylikni anglatgan so'zlarning ba'zilari asl nusxa tilidan tashqari, yana qator xalqlar nutqida, jumladan, tarjima tilida ham uchrashi, aniqrog'i, tarjima tili lug'at boyligining ham tarkibiy qismi hisoblanishi mumkin. Bunday so'zlar til, chegara yoki turmush sharoiti jihatidan bir-biriga yaqin, doimo o'zaro munosabatda, muloqotda bo'lib turadigan, ayrim odatlari bir-biriga o'xshash xalqlar nutqida ko'p uchraydiki, ayni hol tarjimonni hech qanday amaliy qiyinchiliklarga duchor etmaydi. Shuningdek, lingvokulturologik tushunchalar ifodasi uchun qo'llanilgan so'zlarning ko'pchiligi boshqa tillarda ma'nolarini aynan qoplay oladigan til vositalarining yo'qligi, biroq ularning boshqa tillarda ishlatilishiga ehtiyoj sezilishi tufayli, qator tillar lug'at tarkibiga singib, umumiylikni kasb etadi. Bunga, jumladan, tilimizdagi talay so'zlarning jahonning ko'p tillari lug'at tarkibidan borgan sari jadalroq o'rin egallayotganligi yoki xorijiy mamlakatlar voqeligini anglatadigan ko'pgina so'zlarning tilimizga singib borayotganligi ham dalildir. Bu esa tarjima jarayoni mushkulotlarini oson bartaraf etadi. Bundan tashqari, u yoki bu xalq milliy va madaniy tushunchalarini anglatadigan so'zlarning ma'no va vazifalari mamlakatlarning o'zaro madaniy, savdo-sotiq kabi xilma-xil aloqalari natijasida qator xalqlarga, shu jumladan, tarjima tili sohiblariga ham tushunarli bo'ladi. Tarjimonlar bunday so'zlarga o'z tillarida o'xshash muqobillar qidirib yurmasdan transliteratsiya yo'li orqali qayta tiklaydilar.

Biroq boshqa madaniyat va urf-odatga mansub bo'lgan xalqlar adabiyoti tarjimasida eng katta qiyinchilik tug'diradigan o'lchov birliklari leksemalarining tarjimasidir. Chunki o'lchov birliklari bir-biridan farq qilib, nafaqat o'lchami, balki o'lchash qiymatlarida ham o'zaro tafovutlarga ega. Binobarin, har doim ham bir xalqqa xos bo'lgan istilohlarni ikkinchisiga oid tushunchalar bilan ifodalab bo'lmaydi: ularni ham asliyatga muvofiq, tarjima o'quvchisiga tushunarli shakl va uslubda berish lozim.

Lingvokulturologiyaning boshqa barcha ko'rinishlari kabi vaqt o'lchov birliklari leksemalari ham tarjimada asliyatga muvofiq aks etishi kerak. Tarjima ayrim olingan so'zlarning to'g'ri yoki noto'g'ri o'girilganiga qarab baholanmaydi. Tarjimaning asosiy muvaffaqiyati o'lchov birliklari leksemalarini to'laqonli qayta yaratish, asliyat muallifi uslubini, mazmuni va g'oyasini tarjima orqali bera olishdir.

Umuman olganda, o'zga xalqqa xos istiloh-tushunchalar va o'lchov birliklari leksemalari o'girmasida ularning asarda qo'llanilgan o'rnini, bajargan vazifasini hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

Barcha xalqlar uchun umumiy va har bir xalqqa xos bo'lgan o'lchov birliklari mavjud, umumiy o'lchov birliklari tarjimasida tarjima tilidan asliyatdagi istiloh – tushunchaning muqobilini topib, tarjima qilinadi. Lekin gap bevosita u yoki bu o'lchov birliklari mazmun-mohiyatini ifodalaydigan birliklarga borib taqalganda, ular transliteratsiya qilinib, zarur izohlar keltiriladi. Ingliz tarjimonlari "Boburnoma" matnida qo'llanilgan o'lchov birliklarini transliteratsiya, mos muqobillari hamda xolis ifoda yo'li bilan o'girganlar, natijada, aksariyat hollarda asliyatning badiiy-estetik qimmatini, ularning milliy o'ziga xosligi va tarixiy davri saqlanib qolgan.

Bobur og'irlik o'lchov birliklarini tavsif etganida, retsipyentga tushunarli bo'lishi uchun tasvir usulini boshqacharoq shaklda davom ettirganining guvohi bo'lamiz. Hindistondagi o'lchov birliklari leksemalarining ko'pligini Bobur shunday izohlaydi:...bu adadlarning ta'yini Hinduston molining ko'plugining dalilidir... Yana hind eli adadni ham xo'b ta'yin qilibturlar: yuz mingni lak derlar, yuz lakni karo'r derlar. Yuz karo'rni arb derlar. Yuz arbni karb, yuz karbni niyl, yuz niylni padam, yuz padamni sank. Bu adadlarning ta'yini Hinduston molining ko'plugining dalilidir (BN.208). Ushbu matnda berilgan raqamlar muallifning matematik atamalarini tasniflab, ularni o'lchovlarda ishlatishda tushunarli bo'lishi uchun uringanini, tasvirlarni hindcha terminlar asosida ko'rsatishidan ham fahmlasak bo'ladi. Boburona uslub hech bir muallifning asarlarida uchramaydi, muallifni tashvishlantirgan narsa bu - o'quvchi uchun matnni o'qiyotganida hech qiyinchilik bo'lmasligi, matnda berayotgan o'lchamlar, tasniflarda voqeliklar o'z ifodasini yaqqol topishidir.

Yuqorida keltirilgan parchada har bir o'lcham atamasi ayni jihatdan mutarjimlar ijodida shunday aks etgan:

Ushbu: yuz mingni lak derlar, yuz lakni karo'r derlar. Yuz karo'rni arb derlar. Yuz arbni karb, yuz karbni niyl, yuz niylni padam, yuz padamni sank jumlasini Leyden-Erskin tarjimasida: They call a hundred thousand a lak, a hundred laks a krur, a hundred krurs and arb, a hundred arbs a kerb, a hundred kerbs a nil, a hundred nils a padam, a hundred padams a sang (Ular yuz mingni lak, yuz lakni karo'r, yuz karo'rni arb, yuz arbni karb, yuz karbni niyl, yuz niylni padam, yuz padamni sank deb atashadi);

A.Beverij tarjimasida: 100,000 they call a lak; 100 laks, a krur; 100 krurs, an arb; 100 arbs, 1 karb; 100 karbs, 1 nil; 100 nils, 1 padam; 100 padams, 1 sang (Yuz mingni

ular bir lak deb, yuz lakni karo'r, yuz karo'rni bir arb, yuz arbni karb, yuz karbni bir niyl, yuz niylni bir padam, yuz padam bir sank deb atashadi);

V.Tekston tarjimasida: One hundred thousand equal 1 lac; 100 lacs equal 1 crore; 100 crores equal 1 arb; 100 arbs equal 1 kharb; 100 kharbs equal 1 nil; 100 nils equal 1 padam; 100 padams equal 1 sankya (Yuz ming bir lakka teng, yuz lak bir karo'rga teng, yuz karo'r bir arbga teng. Yuz arb bir karbga teng, yuz karb bir niylga teng, yuz niyl bir padamga teng, yuz padam bir sankka tengdir) tarzida o'girilgan.

Variantlarning qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, Leyden - Erskin tarjimasida matematik qiyoslarni transliteratsiya usuli orqali, raqamlarning yozuvda ifodalanishi yo'li bilan ingliz tilida qayta tiklangan. Tarjimonlar matematik o'lchovlarni bir xil so'zlar bilan emas, raqamlar bilan qayta tiklashga uringanlar. Ularning har biri leksik-semantik jihatdan gaplarning bir-biri bilan bog'lanishiga e'tibor qaratishgan. V.Tekston tarjima matnida raqamlar o'rtasida equal so'zini ishlatgan, Leyden-Erskin va A.Beverij tarjimalarida gapning bosh qismida call so'zini qo'llagan bo'lsa, bu so'z hisob raqamlarining barchasini jamlash, uyushtirishga xizmat qilgan. Muallifning sodda gap shaklidagi ifodalari, tarjima matnlarida qo'shma gap tarzida qayta tiklangan.

Asliyatdagi: Bu adadlarning ta'yini Hinduston molining ko'plugining dalilidir jumlasini, Leyden-Erskin tarjimasida: The fixing such a high mode of calculation is a proof of the abundance of wealth in Hindustan (hisoblashni shunday yuqori uslubda belgilanishi Hindistondagi boylikning mo'lligining isbotidir); A.Beverij tarjimasida: The fixing of such high reckonings as these is proof of the great amount of wealth in Hindustan" (sanoqning bunday yuqori belgilanishi Hindistonda boylikning katta miqdordaligini dalilidir); V.Tekston tarjimasida: The creation of these numbers indicates the vast wealth of Hindustan (bu raqamlarning yaratilishi Hindiston boyligining kattaligini ko'rsatadi) deb qayta tiklanadi. Har uchala tarjimada keltirilgan o'lchov birliklari leksemalarining tarjimasini biri-biri bilan chog'ishtiradigan bo'lsak, fixing va wealth so'zlaridan tashqari barcha so'zlarning sinonimi ishlatilgani ma'lum bo'ladi. Demak, barcha tarjima matnlarida o'lchov birliklari leksemalari shaklan har xil bo'lsa-da, ma'no jihatidan aynan bir xildir. Tarjimalarning har biri o'ziga xos uslubda qayta tiklangan.

O'lchov birliklari tarjimasidagi xato-nuqsonlarning kelib chiqish sabablari asosan 4 xil: 1) boshqa xalqlar o'lchov birliklaridagi ayrim o'lchov birliklarini yetarli darajada bilmaslik, ba'zi tafovutlar, ayniqsa, mumtoz asarlardagi farqlar; 2) tarjimani o'quvchi saviyasini nazarda tutib, asliyat matnini ataylab

soddalashtirishga urinish; 3) har qanday millatga xos o'lchov tushunchalarini barcha o'lchov birliklari uchun umumiy bo'lgan atamalar bilan ifodalash yoki bunday o'rinlarni tarjima jarayonida qisqartirib ketish; 4) tarjima asarini ingliz hayotida foydalanadigan o'lchov birligiga moslashtirish, milliyashtirish natijasi o'laroq, boshqa xalqqa tegishli o'lchov birliklarni tarjima tili o'lchov birliklariga almashtirish.

O'lchov birliklari leksemalarining tafovutlari muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir xalqning o'lchov birliklari haqida o'ziga xos qarashlari va urf-odatlari borki, ular mohiyatan yaqin bo'lsa-da, biroq lingvokulturologik jihatdan farqlanadi. Tarjima jarayonida ularni o'zgartirish, o'z rasm-rusumlariga muvofiqlashtirish asliyat o'quvchisi amal qiladigan o'lchov birliklariga daxl qilishi mumkin. Shu sababli, eng avvalo tarjimon boshqa xalq tili, urf-odati va an'analarini hurmat qilishi va muayyan tartibda shu xalq o'lchov birliklari leksemalarini saqlab qolishi lozim.

O'lchov birliklar leksemalari yoritilgan asarlar talqini, shu birliklarni qayta yaratish, qadimgi o'lchov birliklarini tarjimada aks ettirish masalasini o'rganish misolida tarjimada, tarjimon konsepsiyasi masalasini tekshirish ham muhim nazariy xulosalarga olib keladi. Chunonchi, tarjima uchun tarjimonlikning alifbesi bo'lgan til bilish birlamchi rol o'ynamaydi. Chunki tarjima tarixida taglamadan ham muvaffaqiyatli tarjimalar yaratilganligiga ko'plab misollar keltirish mumkin. Aksincha, tilni bilgan holda, muvaffaqiyatsiz tarjimalar yaratish hodisalari ham undan oz emas. Ma'lum bo'ladiki, o'lchov birliklar leksemalari tarjimalarida lingvokulturologik xususiyatlar muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Zahiriddin Muhammad Bobur "Boburnoma"da qay bir o'lka, mamlakat haqida to'xtalmasin, albatta, o'sha joy haqida ma'lumot berish bilan birgalikda ularning o'lchov birliklariga ham e'tibor qaratadi. Masalan, muallifning kark (karkidon)ga bergan ta'rifini olaylik. Muallif karkning tuzilishiga tavsif berish mobaynida uning o'lchamlarini o'ta sinchkovlik bilan kuzatganining guvohi bo'lamiz. Keng dunyoqarash va tajriba sohibi bo'lgan Bobur, fanning turli sohalarini sinchiklab o'rgangani ma'lum. Shu bois har bir narsa-hodisaga oddiy tomoshabin sifatida emas, tadqiqotchi, olim ko'zi bilan qaraydi. Bobur karkidon tavsifida uning qiyofasini tasvirlar ekan, albatta, o'lchov birligi leksemalari orqali tasvirini va ko'rinishini tavsiflashga harakat qiladi. "Boburnoma" matnida muallif karkidon terisining o'lchami juda qalinligini ta'kidlab, uzoqdan uni otga o'xshaydi, desa boshqa zoologik xususiyatlarini sanayotib, uning otdan farqli jihatlarini va o'lchamlarini ko'rsatadi. Shuningdek, karkidonning shoxi, og'irlik va uzunlik o'lchovlarini aniq tasvirlaydi: Yana karkdur; bu ham ulug' jonivoredur. Zaxomati

uch govmishcha bo'lg'ay). Ul so'z kim, ul viloyatlarda mashhur durkim, kark filni shox bila ko'tarur emish, g'olibo g'alattur. Bir shoxi bor, burnining ustida, uzunligi bir qarishdin ko'prak, ikki qarish xud ko'ru olmaydur. Bir uluq shoxidin bir obxo'ra kishti bo'ldi, yana bir nardning tosi bo'ldi, yana uch-to'rt ellik ham shoyad ortti ekin. Terisi bisyor qalin bo'lur. Qattiq yoy bila bag'alkusho va xo'b to'ldurub ursalar, yaxshi kirsar, to'rt ellik kirar (BN.199). Ko'rinadiki, karkidonning kattaligi, terisining qalinligi kabi jihatlari kerakli o'rinda, texnik vositalar (o'q-yoy) orqali tasvirlanib qancha o'lchamga tengligi tasvirlanmoqda, tasvirda karkidonning o'quvchini hayratga soladigan darajadagi og'irligi va uzunligi aniq namoyon bo'lmoqda. Garchi Bobur bu o'rinda "o'q boshqa bir hayvonning terisidan buncha o'tadi" deb terisining o'lchamini aniq ko'rsatmasa-da, o'quvchining o'zi bunday tasavvurga ega bo'lishi uchun imkoniyat yaratadi. Asliyatdagi Yana karkdur; bu ham ulug' jonivoredur. Zaxomati uch govmishcha bo'lg'ay jumlasini, Leyden-Erskin tarjimasida: The rhinoceros is another. This also is a huge animal. Its bulk is equal to that of three buffaloes (yana karkdir. Bu ham katta hayvondir. Uch bizon (Shimoliy Amerika yovvoyi qoramoli)ga teng) deb tarjima qiladi. Umuman, Shimoliy Amerika bizonining ko'rinishi Bobur aytgan govmish (sog'in sigir)dan ancha kattaroq o'lchamga egaligini o'quvchi anglashi uchun aniqroq berishga uringan. Shu sababdan tarjimadagi karkidonning jismoniy ko'rinishi mubolag'ali tasavvur qoldiradi...uzunligi bir qarishdin ko'prak jumlasidagi bir qarich lingvokulturologik jihatdan milliy o'lchov birligi hisoblanadi. Bu o'lchov birligi leksemasidan o'zbeklar ko'proq foydalanadi. Tarjimada ushbu lingvokulturologik xossa: upwards of a span in length (uzunligi bir qarichdan ko'p) tarzida berilgan bo'lsa-da, aynan lingvokulturologik jihatdan muallif ta'riflagan o'lchamni ko'rsatib bera olmagan. Tarjimon lingvokulturologik jihatdan shu tilda ifoda etiladigan o'lcham birliklarini nazarda tutgan va o'quvchiga yetkazib berishga harakat qilgan. Ushbu ...qattiq yoy bila bag'alkusho va xo'b to'ldurub ursalar, yaxshi kirsar, to'rt ellik kirar jumlasini, tarjimada: If it be shot at with a powerful bow, drawn up to the armpit with much force, and if the arrow pierces at all, it enters only three or four fingers' breadth (agar u kuchli kamon bilan otilsa, katta kuch bilan zo'rlab ko'tarilsa qo'ltig'igacha boradi, agar kamon o'qi batamom sanchilsa, uch-to'rt barmoq kenglikda kiradi) shaklida aks etadi. Bunda tarjimon generalizatsion transformatsiya usuliga tayangan holda ushbu jumlaning qayta tiklaydi. Bu usul: "...konkretlashtirishning aksi bo'lib, asliyatdagi tor ma'noli so'zni tarjima tilidagi keng, umumlashtiruvchi so'z bilan almashtirishni ko'zda tutadi". Ammo bu usuldan muvaffaqiyatli foydalana olmagan tarjima tahlilidan ma'lum. Xullas, tarjimon to'rt enlik o'lchov birligi leksemasidagi ma'noni xiralashtirgan, ularni

asliyatdagidek bera olmagan. Aynan lingvokulturologik xossani o'quvchiga yetkazishda bir oz tushunarsizlikka yo'l qo'ygan.

A.Beverij ushbu yana karkdur; bu ham ulug' jonivoredur. Zaxomati uch govmishcha bo'lg'ay jumlasini tarjima qilishda Leyden-Erskin yo'lidan boradi. Ushbu jumla:...equal in bulk to perhaps three buffaloes (uning kattaligi balkim uch bizon (Shimoliy Amerika yovvoyi qoramoliga tengdir), deb o'giradi. Asliyatda berilgan uzunligi bir qarishdin ko'prakni esa, more than nine inches (qarish) long (to'qqiz dyumga qaraganda uzun) deb beradi. Aftidan, tarjimon Bobur bergan milliy o'lchov birligini, ingliz o'lchov birligiga moslab to'qqiz dyumga teng deb olgan ko'rinadi. Tarjimon bu o'lchov birligi leksemasini o'quvchiga tushunarli bo'lishi uchun tarjima tilida mavjud variantidan foydalangan. Ularning o'lchamida qanday farq borligi yoki aynan bir xilligini o'lchovlar tahlilidan bilib olamiz. Agar bir qarich o'rtacha 20 sm, bir dyum-2,5 smga teng bo'lsa, 10 dyum 22,5 smni tashkil etyapti. Chunki muallif o'lchamda bir qarichdan ko'proq ekanligini ta'kidlagan. Demak, tarjimon hisobni to'g'ri olgan. Lingvokulturologik jihatdan, o'z millatining madaniyatidan, urf-odatlaridan kelib chiqqan. Matnni adekvat o'girishga erishgan. ...yana uch-to'rt ellik ham shoyad ortti ekin jumlasini leaving over (the thickness of) 3 or 4 hands (qolgani (qalinligi) uch yoki to'rt qo'l) tarzida beriladi. Bizga ma'lumki, uch-to'rt qo'l, uch-to'rt enlik ma'nosini bermaydi. Enlik deganda xalqimiz qo'lning bo'yi emas, enini nazarda tutadi. U o'lcham hozirda ham savdo sohasida ishlatib kelinadi. Bunday o'lchamlar xalq orasida ko'p qo'llaniladi. Tarjimada lingvokulturologik jihatga e'tibor beradigan bo'lsak, bu xususiyat o'z aksini topmagan, tarjimon ham muallifning milliylik nuqtai nazaridan berilgan o'lchamini chuqur tahlilga tormagan, natijada o'lchov hajmi katta bo'lib ketgan. A.Beverij tarjimaga aniqlik kiritish maqsadida izoh va sharhlarni ko'proq kiritgan. Ammo uzunlik o'lchovi masalasida bu jihatni unutgan.

V.Tekston uzunlik o'lchov birligi leksemalarini asliyatga muvofiq tarzda berishga erishgan. Asliyatdagi: uch govmishcha so'zini the size of three oxen (Kattaligi uch ho'kizchadir) deb o'girib, ma'lum ma'noda Bobur talqiniga yaqinlashgan....ul so'z kim, ul viloyatlarda mashhurdur kim, kark filni shox bila ko'tarur emish, g'olibo g'alattur jumlasini, tarjimada: The statement that is well known in our country, that is, that a rhinoceros can lift an elephant on its horn, is certainly false (Bu fikr bizning viloyatimizda mashhurdir, kark shohida filni ko'tara oladi, albatta yolg'ondir) tarzida aks etadi. Ammo asliyatda g'alat so'zi hayrat, bilmaslikni tan olish, qoyil qolish ma'nolarida kelgan. G'alatning yolg'on ma'nosi ham bor, ammo ushbu jumla kontekstda o'zini oqlamaydi....yana uch-to'rt ellik ham shoyad ortti ekin jumlasini maybe three or four fingers of horn were left over

deb beriladi. Ushbu uch-to'rt ellik o'lchovini three or four fingers (uch-to'rt barmoq (enlik) shaklida berib, asliyatga ancha yaqinlashadi.

Bizningcha, bu matn tarjimasida har ikkala tarjimonga nisbatan V.Tekston tarjimalari aniqroq, adekvatroq qayta tiklangan. Tarjimalarni qiyosiy o'rganish asosida yana shunday xulosa chiqarish mumkinki, tarjima variantlarini bu usulda o'rganish, talqin etish, ularni birlashtirish biror tilda muqobil tarjima variantining paydo bo'lishiga olib keladi. O'lchov birliklarining lingvokulturologik jihatini saqlagan holda o'quvchiga yetkazish ham tarjimonning mahoratiga bog'liq tarzda amalga oshadi. Bu matnni o'qiyotgan o'quvchi ham shu millatning madaniyati va qadimiy o'lchov birliklaridan bahramand bo'lishini nazardan chetda qoldirmasligi zarur. N.Qambarovning ta'kidlashicha: "...madaniyat va kulturologik hodisalarni ifodalagan terminlarning barchasi til va madaniyat bir-birisiz mavjud bo'lmasligini isbotlaydi. Til madaniyatning mulki sifatida tushunilsa, unda u madaniyatning eng muhim va ajralmas qismi ekanligini e'tirof etish haqiqat bo'ladi". Demak, o'lchov birliklarining tarjimasida Leyden-Erskin tarjimasida qo'shimchalar, takrorlardan unumli foydalanilishi, A.Beverij tarjimasida izoh va sharhlarning yetakchilik qilishi, V.Tekston tarjimalarida esa aniqlik va adekvatlik uchun tirishish bir joyda jamlansa, "Boburnoma" matnining inglizcha tarjimasida ancha muvofiq nashrga aylanadi. Haqiqatan ham, tarjimon asliyat muallifi ifodalagan tasvirni aynan aks ettirishda, har bir so'zni tarjima matnidan tushirib qoldirmaslikka, lingvokulturologik jihatlariga, bir so'zni ma'no va mazmuni jihatidan o'zgartirib matnga putur yetkazmaslikka hamda o'quvchiga tushunarli ifodalashga intilishi zarur bo'ladi. Matnga o'zgartirishlar kiritilishi lozim o'rinda zarurat maqomida turadi. Ammo matn kengayishi abatta, ma'no-mazmun yo'qolishi hisobiga bo'lmasligi kerak. Shuningdek, asliyat uslubini saqlash ham tarjimaning muhim xususiyati hisoblanadi.

Asliyatga har jihatdan mos mukammal tarjima yaratish uchun mutarjim asl nusxa yaratilgan til, u mansub xalq tarixi, dini, madaniyati, turmush tarzi, urf-odat va an'analarini bilishdan tashqari, muallifga ruhan yaqin, u bilan usluban bir yo'nalishdagi ijodkor bo'lishi kerak. Muallif va mutarjimning dunyoqarashi, o'y-fikrlari, dardu tashvishlari o'zaro mushtarak bo'lishi va ayni jihatdan asliyat tarjimonni to'lqinlantirishi

lozim, shu xoldagina asarni ilhom, zavq-shavq va katta ichki ehtiyoj bilan tarjima qila oladi. Bunda hayotiy tajriba, malaka, yosh va boshqa ijtimoiy-ruhiy omillar ham muhim rol o'ynaydiki, ulardan birortasi yetishmasa, o'sha tarjima to'laqonli chiqmaydi.

Bu omillar ko'pincha adib-tarjimonlar ijodida yorqin aks etadi. Chunki ularning o'ziga xos tarjima uslubi mavjud: bunda davr talabi, o'quvchi ehtiyoji va qalb istagi o'zaro birlashib ketgan bo'ladi. Ayni shu uch omil uyg'unligi o'laroq dunyoga kelganligi uchun ham bunday tarjimalar ko'pincha tarjimachilikka munosib hissa bo'ladi.

"Hozirgi badiiy tarjima nazariyasi asl nusxaning mazmuni va ma'nosinigina emas, balki milliy va tarixiy fazilatlarini saqlash zarur, deb hisoblaydi" . Shuningdek, bu asarlarda u yoki bu xalqning o'ziga xos xususiyat va jihatlari aks etadi. Bizga ma'lumki, din, madaniyat, turmush tarzi, an'ana va urf-odatlar hatto til jihatidan mushtaraklikka ega xalqlar borki, ularning bu jihatlari lingvokulturologik xususiyatlariga ko'ra farq qiladi va tarjima san'atida o'ziga xos tarzda qayta tiklanadi. Lekin ko'chilik xalqlar o'rtasida tildan tortib dingacha, turmush tarzidan urf-odatlargacha tafovut va hatto ziddiyatlar mavjudki, bu hol tarjima jarayonida qator muammo va murakkabliklarni keltirib chiqaradi.

Tarjima asliyatining milliy o'ziga xosligini saqlash mutarjimdan o'lchov birliklarining barcha turlari va ko'rinishlaridan xabardor bo'lishni taqozo etadi. U yoki bu asarni tarjima qilishda mazkur tarjimani o'qiydigan kitobxonning asliyat tilida so'zlashuvchi xalqning hayoti va urf-odatlar bilan qanchalik tanish ekanligini ham hisobga olmoq lozim. Ushbu tarjima masalasida shuni hisobga olmoq darkorki, ingliz kitobxonni nuqtai nazaridan yondashilsa, ahvol bir muncha o'zgacha bo'ladi, zero, bu borada ko'plab so'zlar, ayniqsa, o'lchov birliklar leksemalari tarjimalarida bunga yanada chuqquroq kirib borish lozimligini anglatadi. Bu, albatta, shu tilda so'zlashuvchi millatlarning milliylikiga xos tarzda ishlatilishi ham tarjimada ayrim muammolarni olib keladi, desak to'g'ri bo'ladi.

Tarjimonning dunyoqarashi keng, bilim zaxirasi katta bo'lishi kerak, degan talablar bejizga emas. Chunki bu mahorat tarjima jarayonida juda muhim omillardan biridir. U nafaqat o'z xalqi, balki tarjima qilinayotgan asar mansub bo'lgan xalq tarixi, dini, madaniyati, adabiyoti, turmush tarzi va urf-odatlarini yaxshi bilmog'i lozim, bular lingvokulturologik xususiyatlarni tarjimalarda aks etish jarayoniga albatta, o'z ta'sirini o'tkazadi. Agar shunday bo'lganida, ko'rib o'tilgan kamchiliklarga yo'l qo'yilmagan bo'lardi.

O'lchov birliklari tarjimalarini lingvokulturologik xususiyat-larini berishda ko'pincha ifoda etilayotgan asliyat tildagi birliklar ma'no-mazmunini ham yoddan chiqarmaslik taqozo etildi. Ushbu "Boburnoma" matnidan keltirilgan parchaga e'tiborimizni qaratsak: "To'qquz tarnov suv kirar. Bu ajabturkim, bir yerdin ham chiqmas" (BN.34). Bu parchada " tarnov" o'lchov leksemasi o'zbek millatiga mansub bo'lgan o'lchov birligidir. "Tarnov" o'lchov leksemasi "Boburnoma"

matnida hajmni ifodalaydi. Nazokat Jiyanovanning tasnificha, "...bugungi kunda Qashqadaryo, Qarshi, Beshkent va Toshkentda tannov, Qovchin, Andijon, Farg'onada tarnov shaklda qo'llanib, suv oqib o'tish uchun metall yoki yog'ochdan yasalgan ariqcha shaklidagi predmetga nisbatan qo'llanadi". Buning asl ma'nosi bir tarnov suvining qancha suv o'lchamiga tengligidir. Ingliz mutarjimplari tomonidan bu o'lcham birligining qayta tiklanish jarayonlariga e'tibor qaratsak, V.Tekston tarjimasida: Nine water channels enter it; amazingly, the water does not come out anywhere (9 kanal suv kirar, suv biror joydan ham chiqmas) deb beriladi. "9 tarnov suv" o'lchov birligi Nine water channels deb tarjima qilinadi. Ushbu channel so'zi a length of water wider than a strait, joining two larger areas of water, especially two seas. Bu berilgan ta'rifdan ko'rinadiki, ingliz mutarjimi tomonidan qilingan tarnov o'lchov leksemasining tarjimasida lingvokulturologik jihatidan boburona tasnifga mos kelmaydi. Tarjimon ham o'lchov leksemasini o'z millati jihatidan kelib chiqib, lingvokulturologik xususiyatiga moslagan holda qayta tiklagan.

Bunday tahlillarni ko'plab keltirish mumkin. Biroq aynan mana shunday holatga biz ko'proq e'tiborni jalb qilishni istardik, zero, badiiy tarjima qotib qolgan narsa emas, balki ijodiy jarayondir, u doimiy izlanishda, doimiy rivojlanishda bo'lib, kundan-kun yangilanib boradi. Lingvokulturologik jihatdan tarjimalarni berish chog'ida, milliylikning qanday tarjima qilinishi haqida emas, balki asar mazmuni va g'oyasini tarjimada to'la saqlay bilish haqida, asliyat muallifining uslubini, asardagi u yoki bu obrazni, u yoki bu holatni tarjimada adekvat qayta yaratish haqida boryapti. Bu muammolarni har bir tarjimon o'z tarjima usullaridan kelib chiqib, albatta, o'zicha hal qiladi. Bunga har bir tarjimonning haqi bor, huquqi bor. Faqat o'lchov birliklari leksemalarining tarjimasidagi bu xilma-xillik, tarjimaning sifatiga ta'sir qilmasa, o'quvchida u yoki bu xalqning o'lchovlarida lingvokulturologiya xususida noto'g'ri tasavvur uyg'otmasa, uni chalg'itmasa, bu tarjimonning tarjimini yetarlicha aniq aks ettira olganidan darakdir.

Tarjimon biror yozuvchining asarini tarjima qilgan ekan, uning uslubini, albatta, tarjima asarida aks ettirishi zarur. Bu adabiy tarjimaning asosiy qoidalaridan biri, tarjimonning ustaligi esa asliyat asarining uslubini bera bilishdadir. Agar tarjimon o'sha yozuvchining uslubini bermasa, u vaqtda tarjima bo'sh chiqadi va tushunarsiz, oxiri yo'q bir yo'lga aylanadi. Eng mohir tarjimonlarning asarlari shuning uchun ham o'lmas asarlar bo'lib qoladiki, ular asliyat asar muallifining ruhi va uslubini bera oladilar. Bu og'ir vazifani bajarish uchun tarjimon har turli yo'llarni axtaradi hamda sevimli tarjimonga aylanadi.

Murakkab va yuksak san'at turlaridan bo'lmish mumtoz asarlar tarjimasini ijodiy ish mahsulidir. Har bir talantli yozuvchining individual ijodiy uslubi bo'lgani kabi tajribali tarjimonlarning ham o'ziga xos uslubi bo'ladi. Tamoman boshqa-boshqa tillarda ijod qilsa-da, uslub jihatdan yaqin yozuvchilar bor. Ular asarlarni o'z ona tiliga o'girsas, tarjima o'sha tilda yaratilgan asliyat asaridek ro'yobga chiqadi. Buni tarjima nazariyasi va amaliyoti ham e'tirof etadi.

Tarjimonning tarjima qilinajak asarda tasvirlangan xalq o'tmishini, o'sha xalqqa xos barcha xususiyatlarni, voqealar bo'lib o'tgan ijtimoiy va geografik muhitni, asl nusxa muallifining individual uslubini, o'sha asarning yaratilish tarixi, asliyat tili va o'z ona tilini bilishi, nihoyat, muallif ijodining ashaddiy muxlisi bo'lishi-tarjimaning muvaffaqiyatli chiqishining garovidir.

Har qanday yozuvchi kichik asarlardan yirik asarlarga o'sib borgani kabi tarjimon tarjima bobida dastlab hajm jihatidan kichik asarlarni tarjima qilib, keyin yirigini qo'lga oladi. Tarjimon tarjimalarining muvaffaqiyati ko'p jihatdan tayyorgarlikka, mas'uliyatni his etishga bog'liq.

Odatda ko'pchilik tarjimonlar yirik asarlar tarjimasiga ma'lum tayyorgarlik ko'rib, ishning yaxshi chiqishiga ishonch hosil qilgach kirishadi. Ingliz tarjimonlari ham bundan mustasno emas, biz tadqiqotga ularning bu bosqichdagi mehnatini ko'rsatuvchi ayrim misollarnigina keltirdik.

Tarjima tahlilida asosiy masala - asliyatning ruhi, o'ziga xos xususiyatlari qay darajada saqlangani va lingvokulturologik jihatlarini ko'rsatishdir.

Tarjimonlar asliyat matnida ifodalangan vaqt o'lchov birliklarini qayta tiklashda o'z mahorati va uslubiga ko'ra tarjima qilishgan. Ayniqsa, vaqt o'lchov birliklarini lingvokulturologik jihatidan mukammal o'rganib, tarjimada aks ettirish uchun adekvat tarjima asosiy o'rin tutadi. Bu leksemalar tarjimasini aks ettirishda grammatik transformatsiyaning sintaktik moslashuv turlaridan foydalanishgan. Ayni jihat "Boburnoma"dek tarixiy-memuar-biografik asar tarjimasini uchun o'ta muhim. A.Beverij tarjimasida shu jihat ustunlik qiladi. Ushbu va sanalgan boshqa jihatlar tarjimashunoslik nazariyasi va amaliyotini yangidan-yangi xususiyatlar bilan boyitishga xizmat qiladi.

FOYDALANIGAN ADABIYOTLAR:

1. Beveridge A.S., The Bābur-nāma in English (Memoirs of Babur), Translated from the Original Turki Text of Zahiruddin Muhammad Babur Padshah Ghazi by Annette, Susannah Beveridge. 2 Vols, - London, 1922; Repr, in one Volume, - London, 1969; - New Delhi, 1970; - Lahore, 1975. - P.134

2. Leyden J., W.Erskine. Memoirs of Zehired-din Muhammed Babur, Emperor of Hindustan.– Edinburg, 1826. – P.422
3. Zahiriddin Muhammad Bobur. «Boburnoma». – Toshkent: Sharq NMAK, 2002. – B.37.
4. The Baburnama. Memoirs of Babur, Prince and Emperor, Translated, Edited, and, Annotated by Wheeler M., Thackston. – New York & Oxford, 1996. – P.121
5. Nazokat Jiyanova. “Boburnoma”da numerativ so’zlar. Filol.f.nom. diss..avtoreferat. T.: 2010
6. Otajonov N. «Boburnoma» jahon adabiy jarayonida. Qiyosiy-tipologik tahlili. Filol. Fan. Dok. ... diss. – Toshkent, 1994. – B.224.
7. Fedorov A.V. Основы общей теории перевода (лингвистические проблемы). – М.: Высшая школа, 1983. – S.134
8. Rahimov G’.Tarjima nazariyasi va amaliyoti. –Toshkent: O’zbekiston milliy entsiklopediyasi, 2016. – B.113.
9. Hakimova M. O’zbek tilida vaqt ma’noli lug’aviy birliklar va ularning matn shakllantirish imkoniyatlari. NDA. Farg’ona, 2004.
10. Qudratullaev H. “Boburnoma”ning adabiy-tarixiy va uslubiy tahlili, dok. diss..avtoref. –T.: -1998. – B.43
11. Xolmirzaev F. Xotira uyg’onsa go’zaldir. – T.: Fan, 2003. – 56 b.
12. Xolmanova Z. «Boburnoma» leksikasi. – Toshkent: Fan, 2007. – B.3.